

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

BD- 60230100 – 1.11.

“ ” 2024-yil,



“DASTIQLAYMAN”

O'quv ishlarini bo'yicha prorektor:

R.To'rayev

2024-yil

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

FANINING

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Fan/modul kodi HO'AT 1,2-12		O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Hozirgi o'zbek adabiy tili	90	90	180	

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak filologlarga hozirgi o'zbek tilining lisoniy qurilishi va imkoniyatlari hamda ularning nutqiy qo'llanilishi masalalari bo'yicha ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarni hozirgi o'zbek tili nazariyasi va amaliyotiga oid bilimlar bilan qurollantirish, ta'lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

I. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

III. Fan tarkibida quyidagi mavzular kiradi:

Kirish. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining maqsad va vazifalari

O'zbek tili va uning shakllanish tarixi. O'zbek adabiy tili taraqqiyotini davrlashtirish. Hozirgi o'zbek adabiy tili va uning shevalarga munosabati. Hozirgi o'zbek adabiy tilining o'rganilish tarixi va bosqichlari. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining maqsad va vazifalari. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining bo'limlari.

Til, lison va nutq munosabati. Lisoniy paradigma

Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Ilmiy bilish va uning bosqichlari. Falsafiy UMIS va AHVONing lisoniy tizimda voqelanishi. Lisoniy va nutqiy birliklar. Lisoniy paradigma va uning turlari.

Lisoniy munosabat va uning turlari

Hozirgi o'zbek tilida lisoniy munosabatlarning turlari: paradigmatic munosabat, sintagmatik munosabat, ularning xususiyatlari. Paradigmatik munosabatlarda lisoniy ziddiyatlar. O'zbek tilida lisoniy ziddiyatning turlari: noto'liq (privativ) ziddiyat, teng qiymatli (ekvivalent) ziddiyat, darajali (gradual) ziddiyat, ularning xususiyatlari.

Hozirgi o'zbek tilining fonetik sathi

O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari. Empirik soha sifatidagi fonetika nazariy soha sifatidagi fonologiyaning asosi ekanligi. O'zbek tili fonologiyasi va uning asosiy birligi. Fonema va tovush munosabati, unda lison va nutq munosabatining aks etishi.

Fonemaning turlari, ularning maqsad vazifalari. Nutq tovushlari fonetik birlik sifatida. Nutq tovushlarining turlari, xususiyatlari. O'zbek nutq tovushlarining fizik-akustik aspekti.

Nutq tovushlarining akustik belgilari. O'zbek nutq tovushlarining anatomik-fiziologik aspekti.

Unli fonemalar paradigmasi. Undosh fonemalar paradigmasi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili fonologiyasi

O'zbek tili fonologiyasi va uning asosiy birligi. Fonema va tovush munosabati, unda lison va nutq munosabatining aks etishi. Fonemaning turlari. Unli fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, unli fonemalar tasniflash asoslari. Undosh fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, undosh fonemalarni tasniflash asoslari. Fonemalarning lisoniy ziddiyatlarning voqelanishi.

O'zbek tili fonemalari lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi. Nutqiy voqelanishda fonema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy sharoit va vaziyatga moslashishi. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi lisoniy omillar: yondosh tovushlar, urg'u, bo'g'in, ohang va b. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi nolisoniy omillar (nutqiy vaziyat va sharoit, so'zlovchi shaxs va b.), ularning lisoniy omillar bilan uyg'unlashuvi.

Hozirgi o'zbek tilining leksik sathi va leksikologiya

Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi. Leksema leksik sath birligi sifatida. Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksema va so'zda lison va nutq munosabatining aks etishi. Leksemaning tuzilishi, tub/yasalganligi, ma'no ko'lami, genezisi, qo'llanishi va boshqa belgilariga ko'ra turlari, munosabatlari.

Semema va uning tarkibiy qismlari

Semema va nutqiy ma'no, ularning turlari va xususiyatlari, uzual va okkazonal ma'no. Sema va uning xususiyatlari, semaning turlari. Leksemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi. So'zning ma'noviy taraqqiyoti. Leksema ma'nosining torayishi va kengayishi. Hosila ma'no vujudga kelish yo'llari va usullari: metafora va vazifadoshlik; metonimiya va sinekdoxa.

O'zbek tilida leksik-semantik munosabatlar

O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar. Leksema – shakl va ma'no unsuridan iborat sistema sifatida. Lug'aviy qator. Lug'aviy mikrosistema. Lug'aviy-ma'noviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy to'da. Lug'aviy-mazmuniy maydon.

O'zbek tilida paradigmatic munosabatlar. Sinonimiya. Sinonimik qator. Dominanta. Lisoniy sinonimlar, nutqiy sinonimlar. Sinonimik darajalanish (graduonimiya). Lug'aviy sinonimlarning markaz va qurshov qatlami.

Leksikaning sistem tabiati. Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar

O'zbek tili leksikasida lisoniy ziddiyatlarning amal qilishi. Leksik antonimiya. Antonimik juftlik. Lisoniy va nutqiy antonimiya.

Omonimlar, omoformalar. Omonimiyaga yondosh hodisalar: omofonlar va omograflar. Paronim va paranomaziya.

Giponimiya, graduonimiya.

O'zbek tili leksikasi tasnifi

Qo'llanilish chegaralangan va chegaralanmagan leksika. Qo'llanilish davri chegaralangan leksika. Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika. Ifodaviylik va uslubiy xoslanganlik jihatdan o'zbek tili leksikasi.

O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti

O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tili leksikasida eskirgan qatlam va uning turlari: arxaizmlar va istorizmlar. So'z o'zlashtirish. O'zlashma va olinma so'zlar. So'z olish yo'llari.

O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlikka munosabati. Ekspressivlikning ifodalanish usullari.

O'zbek tilida onomastik leksika, uning turlari va tarkibi.

O'zbek tili frazeologiyasi

O'zbek tili frazeologiyasi. Frazema. Frazeologik ma'no, uning turlari. Frazeologik-semantik munosabatlar. Frazemalarning nutqiy voqelanishi. Frazemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi.

Perifraza. Perifrazalarning turlari, tarkibi, uslubiy xususiyatlari.

O'zbek tili leksikografiyasi

Leksikografiya. Lug'at turlari va tiplari. Lug'at maqollarning joylashtirish tartibi va sxemasi.

O'zbek tili morfemikasi.

Morfema morfemika birlik sifatida. Morfemaning leksemaga munosabati. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari, derivatsion va Grammatik morfemalar. Derivatsion morfemalarning turlari.

Grammatik morfemalarning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar. Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqda voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik-sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar.

O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi.

O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi. So'z yasash qolipi. So'z yasash qolipi UMIS, yasama so'z AHVO sifatida. So'z yasash qolipining turlari, unumli va unumsiz, sermahsul va kammahsul qoliplar.

Yasama so'zlarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Yasama so'z nutqiy, yasalgan so'z lisoniy hodisa ekanligi. Yasama so'z taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish va tublashish hodisalari.

So'z turkumlarida yasalish va yasama so'zlarning leksemalashishi. So'z turkumlarining ko'chishi. So'z turkumlarida transpozitsiya, konversiya va polifunksionallik.

Grammatik shakl, grammatik ma'no va grammatik kategoriya.

Grammatikaning tarkibiy qismlari. Morfologiya, grammatik shakllangan soʻz, shakllangan soʻz, uning birligi sifatida. Oʻzbek tilida leksemani grammatik shakllantiruvchi vosita va uning turlari. Grammatik ma'no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no, ularning xususiyatlari va turlari. Oʻzbek tili grammatik kategoriyalari va ularning turlari, lugʻaviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Hozirgi oʻzbek tilida soʻz turkumlari. Fe'l soʻz turkumi.

Oʻzbek tilida soʻz turkumlari. Soʻzlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari. Mustaqil soʻz turkumlari, ularning oʻrganilish tarixiga sharh. Mustaqil soʻz turkumlarining xususiyatlari, tiplari, oʻzgaruvchan va oʻzgarmas turkumlar. Gʻayrioddiy ma'noli turkumlar (olmosh, taqlid). Mustaqil soʻz turkumlari tarkibi.

Fe'l. Fe'ning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy Grammatik xususiyatlari. Fe'ning lugʻaviy Grammatik guruhleri. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'ning tuzilish turlari, to'liqsiz fe'llarning soʻz turkumi sistemasidagi o'rni.

Fe'ning tasniflovchi va o'zgalovchi kategoriyalar.

Nisbat kategoriyasi va uning shakllari tizimi. Nisbat kategoriyasi va shakllarining umumiy Grammatik ma'nosi va substansial mohiyati sifatida. Nisbat kategoriyasi umumiy Grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Fe'ning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari: sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi.

Fe'ning harakat tarzi kategoriyasi murakkab tarkibli kategoriya sifatida (ravishdosh-ko'makchi fe'l) harakat tarzi kategoriyasi shakli sifatida.

Fe'ning nokategorial shakllari tizimi.

Ot soʻz turkumi

Ot va uning oʻrganilish tarixi. Otning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning lugʻaviy-grammatik guruhleri.

Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Son kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Otning nokategorial shakllari.

Sifat, son va ravish soʻz turkumi

Sifat va uning oʻrganilish tarixi. Sifatning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lugʻaviy-grammatik guruhleri. Asliy va nisbiy sifatlar. Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida. Daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.

Sifatning nokategorial shakllari: kuchaytirma va ozaytirma shakllari.

Son va uning oʻrganilish tarixi. Sonning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lugʻaviy-grammatik guruhleri va tasniflanishi. Son grammatik shakllarining lugʻaviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari

umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.

Ravish va uning o'rganilish tarixi. Ravishning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik ravishning grammatik belgisi sifatida. Ravishning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Taqlid so'zlar. Olmosh so'z turkumi.

Taqlid va uning o'rganilish tarixi. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Olmosh va uning o'rganilish tarixi. Olmoshning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. Olmoshlarning matndagi o'rni. Sintaktik imkoniyatlari.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyasi

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari: egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi. Ularning umumturkumiy va sintaktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi. Egalik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Egalik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Egalik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Kelishik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Kelishik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Kelishik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Kesimlik murakkab tarkibli kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi. Shaxs-son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Zamon kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Tasdiq-inkor kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Kesimlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Kesimlik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kesimlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bog'lama.

Hozirgi o'zbek tilida yordamchi so'zlar va so'z-gaplar

Yordamchi so'zlar va ularning turlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Ko'makchi, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Ko'makchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Bog'lovchi, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Bog'lovchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Yuklama, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Yuklama lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligi.

So'z-gaplar, ularning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. So'z-gaplar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Sintaksis

Kirish. Asosiy sintaktik birliklar.

Kirish. Sintaksisning morfologiya va leksika bilan aloqasi. Lisoniy sintaktik qolip (LSQ) sintaksisning asosiy tadqiq birligi sifatida. Lisoniy sintaktik qolip (LSQ), uni ajratish yo'llari. LSQning UGMsi, shakliy va mazmuniy tomonlari. Sintaktik UGMLar va ularning nutqda voqelanishi. Erkin va turg'un bog'lanish. Sintaktik aloqa va munosabat. Sintaktik vositalar. LSQlarning ikki asosiy turi, nominativ birliklar yasash LSQ (so'z birikmalari LSQ) va kommunikativ birliklar yasash LSQ (gap LSQ)i.

Valentlik tushunchasi va uning turlari

Valentlik. Leksema va grammatik shakl valentligi nutqda so'zlarni o'zaro aloqalarga kirish omili sifatida. Lug'aviy valentlik. Sintaktik valentlik. Grammatik shakl valentligi. Sintaktik aloqa.

So'z birikmasi sintaksisi

So'z birikmasining o'rganilishi. Erkin birikma va uning turlari. So'z birikmasi, uning xususiyatlari, uning tarkibi, tiplari va turlari. Yondosh hodisalarga munosabati. So'z birikmasi lisoniy sintaktik qolipining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. So'z birikmasi qoliplarida erkin birikuv omillari: ma'noviy, shakliy va joylashuv omillari. So'z birikmasida tobe aloqaning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari.

Birikmalarda sintaktik aloqani ta'minlovchi vositalar.

Sodda gap sintaksisi.

Sodda gap. Sodda gapda so'zlarning birikish usullari, biriktiruvchi vositalar. Sodda gap qoliplarida erkin birikuv omillari: ma'noviy, shakliy va joylashuv omillari. So'z birikmasida tobe aloqaning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari. Birikmalarda sintaktik aloqani ta'minlovchi vositalar.

Gap bo'laklari nazariyasi.

Gap bo'laklari. Gapda kesim va eganing ifodalanishi. Kesim-gap markazi va uning uyushtiruvchisi. Kesimning mustaqil va nomustaqil shakllari, ularning sintaktik vazifalari, grammatik ifodalanish usullari. Ot (ism)-kesim, uning nutqiy ifodalanishi. Bog'lama, uning ko'rinishlari. Ot (ism)-kesimning so'z, so'z birikmasi, frazema, kengaygan birikma bilan ifodalanishi. Fe'l-kesim va uning xususiyatlari. Ega, uning gap qurilishidagi o'rni. Egali va egasiz gaplar. Eganing ifodalanishi. tarkibida so'z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilarining munosabati.

Gap tuzilishida hol, to'ldiruvchi va aniqlovchining o'rni.

Gap LSQsida hol, to'ldiruvchi va aniqlovchining o'rni. Hollar, ularning gap qurilishidagi o'rni, ma'noviy turlari, ifodalanishi.

To'ldiruvchilar, ularning gap qurilishida so'z kengaytiruvchisi sifatidagi o'rni, ifodalanishi. To'ldiruvchilarning turlari.

Aniqlovchilar, ularning gap qurilishida so'z kengaytiruvchisi sifatidagi o'rni. Aniqlovchilarning ifodalanishi va turlari.

Nutqiy gap.

Sodda gapning murakkablashuvi.

Gapda ajratilgan izoh bo'laklar. Kirish va kiritmalarning gapning lisoniy va nutqiy ko'rinishlaridagi o'rni. So'z va gap kengaytiruvchilarining uyushishi. Ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi, izohlovchi undalma, ajratilgan bo'laklar, kiritmalarning uyushish qonuniyatlari va hodisalari. Kesimning uyushish masalasi. Uyushgan va ajratilgan kengaytiruvchilar masalasi, ularda tinish belgilari.

Sodda gapning murakkablashishi va murakkablashtiruvchi vositalar – so'z-gaplar, undalmalar, predikativli(xususiy subyektli) kengaygan birikmalar. Gaplarni kengaygan birikmalarga aylantirish vositalari, kengaygan birikmalarning gapning lisoniy va nutqiy qurilishida o'rni.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Darak, so'roq, buyruq gaplar. Gapda so'zlar tartibi. Gapning aktual bo'linishi.

Nutqiy gaplarning emotsionallikka ko'ra turlari. His-hayajon gaplar. O'zbek tilshunosligida sodda gap qurilishi tadqiqi muammolari.

Uyushgan gap.

Uyushgan gapning LSQ lari va ularning nutqiy voqelanishi, ularda uyushtiruvchi vosita. Uyushgan gaplarning mazmuniy, uslubiy vazifalari. O'zbek tilshunosligida uyushgan gaplarning tadqiqi muammolari.

Qo'shma gap.

Qo'shma gap va uning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi. Qo'shma gap tasnifi masalasi. An'anaviy va zamonaviy tasnif asoslari.

Qo'shma gapning qurilishiga ko'ra turlari.

Qo'shma gapning qurilishiga ko'ra turlari: teng munosabatli, tobe munosabatli, mutanosib munosabatli qo'shma gaplar. Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalarga ko'ra turlari: faqat ohang vositasida, yuklamalar vositasida, teng bog'lovchilar vositasida, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida, nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar.

Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari.

Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari, qismlari, payt, o'rin, sabab, birin-ketinlik, izohlash, qiyoslash, kabi ma'noviy munosabatlar asosida bog'langan qo'shma gaplar.

Qo'shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra turlari: kesim tobe gapli, ega tobe gapli, hol tobe gapli, aniqlovchi tobe gapli, to'ldiruvchi tobe gapli, qo'shma gap.

Qo'shma gap tarkibiy qismlarining irreallikka munosabatiga ko'ra turlari.

Murakkab qo'shma gap tasnifi.

Murakkab qo'shma gap. Murakkab qo'shma gaplarda sintaktik aloqa turlari. Qo'shma gap lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi. Unda lisoniy va nolisoniy omillar.

O'zga gapli qurilmalar, ularning turlari, lisoniy munosabatlari, nutqiy ifodalanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Murakkab sintaktik butunlik.

Murakkab sintaktik butunlik tushunchasi. Murakkab sintaktik butunlik tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar. Olmosh, so'z-gaplarning murakkab sintaktik butunlikdagi o'rni.

Punktuatsiya va uning tamoyillari.

Punktuatsiya va uning o'rganilish tarixi. Punktuatsiya tamoyillari. Tinish belgilarining matndagi vazifasi. Tinish belgilarining qo'llanishi.

II. Amaliy mashg'ulot bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular quyidagicha:

1. Matni lisoniy va nutqiy birliklarga ajratish mashqlari.
2. Lisoniy munosabat va lisoniy ziddiyat bo'yicha mashq.
3. Fonemalarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari bo'yicha mashq.
4. So'z urg'usi va bo'g'in turlari bo'yicha mashq.
5. Fonetik tahlil.
6. Orfografiya va orfoepiya tamoyillari bo'yicha mashq.
7. Kompleks fonetik-orfoepik-orfografik tahlil.
8. Leksema va so'z munosabati bo'yicha mashq.
9. Leksik ziddiyatlar bo'yicha mashq.
10. Semema va nutqiy ma'no, sema va uning turlari bo'yicha mashq.
11. So'z ma'nosi taraqqiyoti, hosila ma'noning vujudga kelish yo'llari va usullarini farqlash mashqlari.
12. Leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tahlili.
13. Leksemalarning tasnifi bo'yicha mashq.
14. Frazеologik tahlil.
15. Kompleks leksik tahlil.
16. Morfemik tahlil.
17. So'z yasalishi tahlili.
18. Grammatik ma'no turlari bo'yicha mashq.
19. Fe'ning lug'aviy-grammatik turlari va lug'aviy shakllari bo'yicha mashq.
20. Fe'l tahlili.
21. Otning lug'aviy-grammatik turlari va lug'aviy shakllari bo'yicha mashq.
22. Ot tahlili.
23. Sifatning lug'aviy-grammatik turlari va lug'aviy shakllari bo'yicha mashq.
24. Sifat tahlili.
25. Sonning lug'aviy-grammatik turlari va va lug'aviy shakllari bo'yicha mashq.
26. Son tahlili.
27. Ravish, uning lug'aviy-grammatik xususiyatlari va turlari bo'yicha mashq. Ravish tahlili.
28. Taqlid, uning lug'aviy-grammatik xususiyatlari va turlari bo'yicha mashq. Taqlid tahlili.
29. Olmosh, uning lug'aviy-grammatik xususiyatlari va turlari bo'yicha mashq. Olmosh tahlili.

30. Sintaktik kategoriyalar bo'yicha mashqlar tahlili.
31. Yordamchi so'zlar bo'yicha mashqlar tahlili.
32. Yordamchi so'zlar tahlili.
33. So'z-gaplar tahlili.
34. Kompleks morfologik tahlil.
35. So'z birikmasi tahlili.
36. Sodda gap tahlili.
37. Gap kengaytiruvchilar tahlili.
38. So'z kengaytiruvchilar tahlili.
39. Murakkablashgan sodda gapda shakl va mazmun tahlili.
40. Uyushgan gap tahlili.
41. Qo'shma gap haqida nazariyalar tahlili.
42. Murakkab qo'shma gap tahlil.
43. O'zga gapli qurilmalar tahlili
44. Tinish belgilarining ishlatilishi.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari talabalarni "Hozirgi o'zbek tili"ga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni tanqidiy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars paytida munozara yoki ma'ruza shaklida namoyish etadi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar hozirgi o'zbek tilining ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishadi.

Seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular quyidagicha:

1. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, manbalari va dialektal tarkibi.
2. O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti va unda yangi lingvistik paradigmalari.
3. Hozirgi o'zbek tilida lison, nutq, me'yoriy munosabati. Lisoniy va nutqiy birliklar.
4. Hozirgi o'zbek tilida lisoniy munosabat va uning turlari.
5. Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari.
6. Fonetika va fonologiya. Fonema va tovushning dialektik munosabati.
7. O'zbek tilshunosligida aksentuatsiya va sillabika. Urg'u va bo'g'in.
8. O'zbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti.
9. O'zbek tili orfografiyasining asosiy prinsiplari.
10. Leksik sath va uning birligi lingvistik muammo sifatida.
11. Leksemaning semantik strukturasi. Semema va sema munosabati. Sema turlari.

Monosemiya va polisemiya.

12. Leksik-semantik sistemalar: lug'aviy-ma'noviy guruh, lug'aviy-mazmuniy to'da, lug'aviy-mazmuniy maydon.

13. O'zbek tilidagi leksemalarning shakl va ma'no munosabatlari: omonimiya, sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, giponimiya, partonimiya.

14. O'zbek tili leksemalari tasnifi.

15. O'zbek leksikografiyasi va lug'atchiligi.

16. Morfema, uning turlari, lisoniy xususiyatlari va nutqiy voqelanishi.

17. O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi.

18. Grammatik shakl, grammatik ma'no va grammatik kategoriya.

19. O'zbek tilida so'z turkumlari. Mustaqil so'z turkumlari.
 20. Fe'l, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
 21. Ot, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
 22. Sifat, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
 23. Son, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
 24. Ravish va uning grammatik xususiyatlari.
 25. Taqlid va uning grammatik xususiyatlari.
 26. Olmosh va uning grammatik xususiyatlari.
 27. O'zbek tilida sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar.
 28. Yordamchi so'zlar: tizimi, turlari va substansial-grammatik xususiyatlari.
 29. O'zbek tilida so'z-gaplar: tizimi, turlari va substansial-grammatik xususiyatlari.
 30. Sintaktik birliklar. So'z birikmasining lisoniy sintaktik xususiyati va bog'lanish omillari.
 31. Valentlik va sintaktik aloqa.
 32. Sodda gapning lisoniy sintaktik xususiyatlari va nutqiy voqelanishi.
 33. Gap bo'laklari haqida sintaktik nazariyalar.
 34. Kesim va uning o'zbek tilshunosligida talqini. Kesimlik va predikatsiya.
 35. So'z va gap kengaytiruvchilari.
 36. Murakkablashgan sodda gapda shakl va mazmun.
 37. Uyushgan gap va uning til lisoniy sintaktik sistemasidagi o'rni.
 38. Qo'shma gap haqida nazariyalar va uning tasnifi.
 39. Murakkab qo'shma gap va o'zga gapli sintaktik birliklarning lisoniy qurilish xususiyatlari.
 40. Tinish belgilari: turlari va vazifalari. Tinish belgilarining qo'llanishidagi muammolar.
- Izoh:** Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.
2. O'zbek tilshunosligi yangi lingvistik paradigmalari.
3. Hozirgi o'zbek tilida lison, nutq, meyor munosabati.
4. Hozirgi o'zbek tilida lisoniy munosabat va uning turlari.
5. Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari.
6. Fonetika va fonologiya. Fonema va tovushning dialektik munosabati.
7. Leksema va so'z.
8. Morfema va qo'shimcha munosabati.
9. Qolip va hosila munosabati.
10. O'zbek tilshunosligida unli fonemalar tavsifi.
11. O'zbek tilshunosligida undosh fonemalar tavsifi.
12. Ta'lim bo'g'inlarida imlo qoidalarining berilishi.
13. O'zbek tilshunosligida urg'u va bo'g'in.
14. O'zbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti.
15. Leksemaning semantik strukturasi.
16. Semema va sema munosabati. Sema turlari. Monosemiya va polisemiya.
17. Leksik-semantik sistemalar.
18. O'zbek tilidagi leksemlarning shakl va ma'no munosabatlari.

19. O'zbek tili leksemalari tasnifi.
20. O'zbek tili frazeologiyasi.
21. O'zbek leksikografiyasi va lug'atchiligi.
22. O'zbek tili derivatsiyasi.
23. O'zbek tili grammatik shakllar.
24. Grammatik ma'no va uning turlari.
25. Grammatik kategoriya va uning turlari.
26. O'zbek tilida so'z turkumlari.
27. O'zbek tilining sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalari.
28. O'zbek tilida so'z-gaplar.
29. O'zbek tilida yordamchi so'zlar.
30. O'zbek tilshunosligida uyushgan gaplarning ilmiy tavsifi.
31. O'zbek tilshunosligida sodda gaplarning ilmiy o'rganilishi.
32. O'zbek tilshunosligida qo'shma gaplar tadqiqi va tasnifi.
33. Sintaktik qolipning nutqiy kengayishi.
34. Nutqda so'z birikmasi qolipining kengayishi.
35. Zamon shakllarining gap qolipini kengaytirishi.
36. So'z birikmasi qolipining nutqiy kengayishi.
37. O'zbek tilida sodda gap qoliplari.
38. Uyushgan gapning lisoniy va nutqiy xususiyatlari.
39. Qo'shma gap qoliplarining nutqiy xususiyatlari.
40. Tinish belgilari: turlari va vazifalari. Tinish belgilarining qo'llanishidagi muammolar.

Izoh: Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Fan bo'yicha kurs ishi. Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli mashqlar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun taxminiy mavzular:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari.
2. Tilshunoslik bo'limlari munosabati.
3. O'zbek tilshunosligida rivojlanayotgan yo'nalishlar.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari.
5. Til va nutqning o'zaro munosabati. Lisoniy va nutqiy birliklar.
6. O'zbek tili tizimida lisoniy ziddiyatning turlari.
7. Hozirgi o'zbek tilida lison, nutq, me'yor munosabati.
8. Fonetikaning tekshirish obyekti va turlari.
9. O'zbek tili fonologiyasi va uning asosiy birligi.
10. Fonetik hodisalar.
11. O'zbek tilida sillabema.
12. Aksentuatsiya urg'ular tizimi sifatida.
13. O'zbek tilida intonatsiya.
14. Orfoepik qoidalar tizimi.
15. Hozirgi o'zbek adabiy tilining yozuv tizimi va tarixi.

16. Orfografik tamoyillar.
17. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari.
18. Kirill va lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvlarining qiyosiy tavsifi.
19. Lug'aviy sath, uning o'zgaruvchanligi, sistemaviyligi.
20. Leksemaning ifoda va mazmun plani.
21. Leksemaning semantik tarkibi.
22. Leksemaning uzual va okkazional ma'nolari.
23. Bir sememali va ko'p sememali leksemalarning xususiyatlari.
24. O'zbek tilida ma'no ko'chishi.
25. Semema va nutqiy ma'no.
26. Hosila ma'noning vujudga kelish yo'llari.
27. O'zbek tilida paradigmatic munosabatlar.
28. O'zbek tilshunosligida terminologiya masalalari.
29. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.
30. Leksik ma'no taraqqiyoti.
31. O'zbek tilida dialektal leksika.
32. O'zbek tilida semasiologik aspektlar.
33. O'zbek tilida sinonimiya.
34. O'zbek tilida omonimiya.
35. So'zlarning shakl va ma'no munosabatlari.
36. O'zbek tilida lisoniy munosabatlar.
37. O'zbek tili lug'aviy birliklarida graduonimik munosabat.
38. Lug'aviy birliklarda gipo-giperonimik munosabat.
39. Paronim va paranomaziya.
40. O'zbek tili leksikasining tarixiy etimologik qatlamlari.
41. O'zbek tilida chegaralangan leksika.
42. O'zbek tilida chegaralanmagan leksika.
43. O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlikka munosabati.
44. Onomastik leksika.
45. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish.
46. Toponomika muammolari.
47. Frazologik birliklarning grammatik tabiati.
48. Frazologizmlarda mavzuviy qatlamlar.
49. Perifrazalarning turlari, tarkibi, uslubiy xususiyatlari.
50. O'zbek tili til korpusini tuzish tamoyillari.
51. O'zbek tilida filologik lug'atlar.
52. O'zbek tilida morfem birliklar.
53. O'zbek o'quv leksikografiyasi muammolari.
54. O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv izohli lug'ati tuzish tamoyillari.
55. Morfemika va morgonologiya munosabati.
56. Morfonema – morfonologiyaning til birligi sifatida.
57. Yordamchi leksemalar va affiksial morfemalar.
58. Derivatsiya masalalari.
59. So'z morfem tarkibidagi tarixiy o'zgarishlar.
60. O'zbek tilida so'z yasash usullari.

61. Soʻz yasash qolipi UMIS, yasama soʻz AHVO sifatida.
62. Grammatikaning tarkibiy qismlari.
63. Morfologik kategoriyalar tasnifi.
64. Grammatik maʼno, uning turlari.
65. Kategorial, yondosh va hamroh maʼno.
66. Soʻz turkumlari tasnifi masalasi.
67. Soʻz turkumlarida transpozitsiya, konversiya va polifunksionallik.
68. Feʼl turkumiga xos grammatik kategoriyalar.
69. Feʼlda shakl va soʻz yasalishi.
70. Ot va uning oʻrganilish tarixi.
71. Otga xos grammatik kategoriyalar.
72. Sifat soʻz turkumining UGMi.
73. Son va uning maʼno turlari.
74. Numerativli birikuvlarning qoliplari.
75. Ravish yasalishi va uning oʻrganilish tarixi.
76. Taqlidlarning fonetik, semantik, morfologik va sintaktik tabiati.
77. Olmoshning oʻziga xos ishoraviy xususiyati.
78. Yordamchi soʻzlarning maʼnoviy va vazifaviy xususiyatlari.
79. Oʻzbek tilida soʻz-gaplar va uning talqini.
80. Sintaksisning oʻrganish obyekti va uning boshqa fanlar bilan aloqasi.
81. Valentlik soʻzlarni oʻzaro aloqaga kiritish omili sifatida.
82. Oʻzbek tilida soʻzlarning bogʻlanish usullari.
83. Lisoniy sintaktik qoliplar haqida maʼlumot.
84. SBning minimal va maksimal LSQsi.
85. Soʻz birikmasida birikuv omillari.
86. Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmalari tadqiqi masalasi.
87. Turgʻun SB va frazemalarning sintaktik boʻlinishi.
88. Gap LSQsi va uning nutqiy voqelanishi.
89. Gap kommunikativ nutqiy birlik sifatida.
90. Kesim – gap markazi va uning uyushtiruvchisi.
91. Ega, uning gap qurilishidagi oʻrni.
92. Gapda ikkinchi darajali boʻlaklarning voqelanishi.
93. Soʻz va gap kengaytiruvchilar munosabati.
94. Uyushgan va ajratilgan kengaytiruvchilar masalasi.
95. Sodda gapning murakkablashuvi.
96. Sodda gaplar tasnifi.
97. Sodda va qoʻshma gaplar munosabati, ularning talqini.
98. Darak gaplarning uslubiy xususiyatlari.
99. Ritorik soʻroq gaplarning nutqiy vaziyat bilan bogʻliq xususiyatlari.
100. Undov gaplarning uslubiy xususiyatlari.
101. Publitsistik uslubdagi matnlarda sodda gaplar.
102. Gapning aktual boʻlinishi.
103. Toʻliqsiz gaplarning nutqiy xususiyatlari.
104. Oʻzbek tilida gap mohiyati va uning talqini masalasi.
105. Uyushgan gap masalasi.

106. Uyushish hodisasi va uning gap tarkibida namoyon bo'lishi.
107. Moslashuv usuli bilan birikkan so'z birikmalari va ularning nutqiy xususiyatlari.
108. An'anaviy sintaksisda qo'shma gaplar tasnifini tahlil etish.
109. Sistem-struktur yo'nalishda qo'shma gaplar tasnifi.
110. Sodda va qo'shma gaplar nazariyalari tahlili.
111. Qo'shma va sodda gaplarning LSQlari va ularning nutqiy voqelanishini qiyosiy o'rganish.
112. Murakkab qo'shma gaplar, ularning asosiy nutqiy ko'rinishlari.
113. Ko'chirma gapli qurilmalarning gap lisoniy tizimidagi o'rni.
114. O'zga gapli qurilmalar, ularning turlari, lisoniy xususiyatlari, nutqiy voqelanishi.
115. MSB matnning tarkibiy qismi sifatida.
116. O'zbek tilshunosligida nutq sintaksisining tadqiqi muammolari.
117. O'zbek tili punktuatsiyasi tarixi.
118. Matnda punktuatsion vositalarning o'rni.

V. Fan o'qitilishidan kutiladigan natijalar (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish jarayonida talaba:

- hozirgi o'zbek tilining shakllanish tarixi, shevalarga munosabati, lisoniy sathlar, lisoniy paradigmatlari, lisoniy birliklarning substansial imkoniyatlari, lisoniy munosabatlar, lisoniy tasnif asoslari, lisoniy birliklarning substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, fonetikasi, leksikasi, morfemikasi, so'z yasalishi, morfologiyasi, sintaksis, punktuatsiyasi, haqida ***tasavvurga ega bo'lishi***;

- hozirgi o'zbek tili sathlari va uning birliklarini farqlash tamoyillarini, lisoniy munosabat hamda uning turlarining ilmiy asoslari, lisoniy birliklar substansial imkoniyatlarini aniqlash usullari, fonetik, leksik, grammatik, imkoniyatlarini aniqlash asoslari, substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishida lisoniy, shaxsiy va pragmatik omillar roli va hamkorligining ilmiy asoslarini bilishi va ulardan foydalana olish ***malakasini egallashi***;

- hozirgi o'zbek tilida lison, nutq hamda ular birliklarini farqlash asoslarini sharhlay olish, lisoniy va nutqiy birliklarni ajratish mezonlarini tushuntira olish, birliklar orasidagi lisoniy munosabatlarni tavsiflay olish, lisoniy imkoniyatlarini nutqiy vaziyat va sharoitga bog'liq ravishda samarali ishga solish ***ko'nikmalariga ega bo'lish kerak***.

VI. Ta'lim texnologivalari va metodlari:

- ✓ ma'ruza;
- ✓ "keys-stadi"lar;
- ✓ seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- ✓ guruhlarda ishlash;
- ✓ taqdimot texnologiyasi;
- ✓ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa hamda topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.
3. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. (Kirish. Fonetik sath. Leksik-semantik sath.) Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.
4. Lutfullayeva D., Davlatova R., Saparniyozova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar: O'quv qo'llanma. – T.:Iqtisod-Moliya, 2018. – 280 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekistan, 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Konun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalk farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekistan, 2017.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
9. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.
10. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
12. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
13. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
14. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
15. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o'zbek tili. Leksikologiya. -T.: FIRDAYS-SHOH. 2021.

Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet>
2. <http://www.thinsan.com>
3. <http://www.literature.uz>
4. <http://www.genhis.philol.ru>.
5. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
6. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.

Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

O'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil "26.06." dagi "14" -son qarori bilan tasdiqlangan.

O'zbek filologiyasi fakultet kengashining 2024-yil "12" - 06 dagi 10 - sonli yig'ilish bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2024-yil "7" - 06 dagi 20 - sonli yig'ilish bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan/modul uchun mas'ullar:

B.Umurqulov – Termiz davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasini mudiri filologiya fanlari doktori, professor.

D.Ergasheva – o'zbek tilshunosligi kafedrasini katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchilar:

A.Hamidov – Termiz davlat pedagogika instituti, o'zbek filologiyasi fakulteti dekani, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.Bahriyeva – Qarshi davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori